



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3,546 (2020)

**2022/№5**

**ТАЪЛИМ ВА  
ИННОВАЦИОН  
ТАДҚИҚОТЛАР**

**ОБРАЗОВАНИЕ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND  
INNOVATIVE  
RESEARCH**





Сапарниязов С. К. Талаба-ёшларни спорт мусобақаларига тайёрлаш тизимини такомиллаштиришда тадбирлар ташкиллаштиришнинг ахамияти	115
Pazilova M. E. Ajdodlarimiz merosini o'rganish jarayonida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish	120
Narzullaeva B. Mahallalarda millatlararo do'stlik aloqasini rivojlantirish mexanizmlari takomillashtirish	125
Namazbayeva L. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish usullari va texnologiyalar	132
Сандова Н. М. О'qituvchi-amaliyotchi talabalarning amaliyot jarayonida immanent va kontekst yondashuvlaridan keng foydalanishi	141
Умаров А. Т. Жисмоний тарбия инсоният мадания таракқиётининг ажралмас қисмидир	146
Мо'minoва D. K. Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarining raqamlashtirish ta'lim muhitida ishlash bo'yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik sharoitlari	152
Давронова фотима пирназаровна замонавий методлар асосида хорижий тилларни ўргатишнинг методик хусусиятлари	159
Юлдашев А. А. Халқ ўйинлари орқали ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантириш	164
Гафурова М. Ю. Волейбол ўйинида махсус жисмоний сифатларни тарбиялаш усуллари	168
Mansurov Sh. Sh. maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishda qo'llaniladigan ta'lim metodlari	172
Nurullayev A. R. Jismoniy tarbiya dars mashg'ulotlarini tashkil qilishda ta'lim metodlarining ahamiyati	176
Худайберганов О. Э., Якубов А. М. Возможности и перспективы применения средств и специфики волейбола для формирования педагогических умений	179
Халилов Ф. Sharq mutafakkirlarining tarbiyaga oid qarashlari o'quvchilar tarbiyasida asosiy manba	185
Alqorov Q.X. Kompetensiyaviy yondoshuv asosida fizikadan sinfdan tashqari ishlarni o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari	190
Зайнитдинова М.А. Математика дарсларида ўқувчиларнинг мантиқий фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга инновацион ёндашув	195
Чутбаева А. Б. Трансформация русских и узбекских пословиц	198
Ибрагимов А. К. Jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'quvchilarni harakat faoliyatiga o'rgatish usullari	202
Xudoynazarova G. A., Murodova Sh. I. Umumta'lim o'rta maktablarda kimyo fanidan masalalarni zamonaviy ta'lim texnologiyalar asosida yechish uslubiyoti	208
Bozorova M. Sh. Kompetensiyaviy yondashuvlar asosida metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanini o'qitish	212

**JISMONIY TARBIYA DARSLARI JARAYONIDA O'QUVCHILARNI  
HARAKAT FAOLIYATIGA O'RGATISH USULLARI**DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022>.*Ибрагимов Алишер Кароматович  
Buxoro davlat universiteti dotsenti*

*Maqolada jismoniy tarbiya jarayonida bolalarni harakat faoliyatiga o'rgatishning usullari va bolalarni harakat faoliyatiga o'rgatishda qo'llaniladigan metodik usullar haqida fikr yuritilgan.*

*Tayanch tushunchalar: Jismoniy tarbiya, ta'lim, tarbiya, metod, bola, mashg'ulot, harakat, usul.*

**МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПОДВИЖНОЙ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ПРОЦЕССЕ ЗАНЯТИЙ ФИЗИЧЕСКОЙ  
ВОСПИТАНИЕМ***Ибрагимов Алишер Кароматович,  
Доцент Бухарского государственного университета.*

*В статье рассматриваются методические приемы обучения детей физической активности в процессе физического воспитания и методические приемы, применяемые при обучении детей физической активности.*

*Ключевые слова: Физическое воспитание, образование, воспитание, метод, ребенок, упражнения, движение, метод.*

**METHODS OF TEACHING STUDENTS FOR MOVEMENT  
ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION CLASSES***Ibragimov Alisher Karomatovich,  
Associate Professor of Bukhara State University*

*The article discusses the methodological methods of teaching children physical activity in the process of physical education and the methodological methods used in teaching children physical activity.*

*Key words: Physical education, education, upbringing, method, child, exercise, movement, method.*

Har bir alohida metod vazifasi va uni hal etishga bir xil yondashish jihatdan birlashadigan xilma-xil usullarning butun bir kompleksi.

Usul-metodning bir qismi, uni to'ldiruvchi va konkretlashtiruvchi detalъ. O'qituvchining xilma-xil usullarni qo'yilgan vazifalarga muvofiq kompleks, ijodiy qo'llanishining ta'lim jarayonini boyitadi, uni individuallashtiradi, bir xillikka barham beradi.

Bolalarni harakat faoliyatiga o'rgatish jarayonida metodik usullar har bir alohida holatda harakat materialining vazifalari va mazmuni, uni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish darajasi, ularning umumiy rivojlanishi, jismoniy holati, har bir bolaning yosh va tipologik xususiyatlariga ko'ra tanlanadi.

Shu ma'noda ta'lim usullari bir tomondan o'quvchilar vazifalarni idrok qilayotganda barcha analizatorlarga har tomonlama ta'sir etishni, ikkinchi tomondan o'quvchining harakat vazifalarini ongli va mustaqil bajarishini ta'minlovchi turli birikmalarda kombinatsiyalanadi. O'quvchilarni harakatlarga o'rgatishda usullarning



birikuvi ularning o'zaro harakati bilan belgilanadi. O'qituvchi tomonidan ko'proq ko'rgazmali metodga oid usullarning qo'llanilishi, masalan harakat namunasini ta'limning barcha bosqichlarida va turli yosh gruppalarida (bu ba'zi praktikada uchrab turadi) ko'rsatish mashqlarni o'quvchilar tomonidan mexanik tarzda, tushunmasdan taqlidan bajarishga olib kelishi mumkin.

Bunday holda ko'proq o'quvchining idrok organlariga ta'sir etish uning idrokini boyitadi, ayni paytda zarur aqliy jarayonni susaytiradi, muayyan mashqning barcha elementlarini mantiqiy izchillikda ongli tarzda eslab qolishga yordam bermaydi, ba'zan o'quvchini keyinchalik mashqni ixtiyoriy bajarish imkoniyatidan mahrum etadi.

Biroq o'quvchining yosh imkoniyatlarini hisobga olmagan holda ko'proq faqat og'zaki usuldan foydalanish ham uni harakatlarni obrazli idrok etishdan, sezgilarning ishonchligidan, konkret obrazli tafakkur protsessidan mahrum etadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarni to'g'ri harakatlarga o'rgatishda ta'limning ruqori darajasiga erishishga intilib ta'limning turli usullari: ko'rgazmali, og'zaki va amaliy usullaridan o'zaro aloqadorlikda foydalanadi. SHunday qilib, u bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, mashqlarning ular tomonidan ongli o'zlashtirilishiga, muayyan sharoitlarda ularni mustaqil va ijodiy qo'llashga yordam beradi. O'quvchilarni harakatlarga o'rgatishda ko'rgazmalilikning turli usullaridan foydalaniladi. Yaqqol ko'rish usullari harakat yoki ayrim harakat elementlarining tarbiyachi tomonidan to'g'ri va aniq namoyish etilishidan; tevarak-atrofdagi hayot ko'rinishlariga taqlid qilishdan; masofani bosib o'tishda mo'ljal olishdan foydalanish; ko'rgazmali qo'llanmalar-kinofilmlar, kinogrammalar, teleeshittirishlar, suratlar va hokazolardan foydalanishdan iboratdir. Taktil- muskul ko'rgazmaliligi o'quvchilarning harakat faoliyatiga jismoniy tarbiya qo'llanmalarini kiritish bilan ta'minlanadi.

Masalan, tizzani baland ko'tarib yugurish ko'nikmasini hosil qilish maqsadida ketma-ket qo'yilgan yoy shaklidagi darvaozachalar qo'llaniladi. Yugurish paytida oyoqni bu to'siqlar osha ko'tarib o'tish o'quvchining tizzani baland ko'tarish ko'nikmasini egallashiga yordam beradi. Bundan tashqari predmetlar o'quvchiga yo'l qo'yilgan xatosini his qilish va tushunish imkonini beradi. O'quvchi ongida o'qituvchining "darvozachaga tegib ketmaslik" haqidagi topshirig'ining saqlanib qolishi xato qilayotgan paytida teri muskul sezgisi bilan bog'lanadi va bola o'z harakatining noto'g'riligini o'zi aniqlay oladi.

Taktil-muskul ko'rgazmaliligi o'quvchi gavdasining alohida qismlarini boshqaruvchi o'qituvchining bevosita yordamida ham ifodalanadi (masalan, qad-qomatni to'g'ri muskul tonusi sezgisini uyg'otadigan qo'l tekkazish orqali rostlash). Biroq, o'qituvchining bunday yordami qisqa muddatli bo'lishi lozim. Aks holda muayyan dinamik sterotipni hosil qilishga xizmat qiluvchi doimiy qo'zg'atuvchilar sistemasidagi signal ahamiyatiga ega bo'lib qolishi mumkin. Keyinchalik ko'nikma og'zaki ko'rsatmalar yordamida mustahkamlanadi.

Yaqqol eshitish usullari harakatlarni ovoz orqali boshqarishga asoslanadi. Cholg'u musiqasi va ashula eng yaxshi eshitish ko'rgazmasi hisoblanadi. Ular o'quvchilarda estetik his va emotsional ko'tarinkilik uyg'otadi, harakat xarakterini belgilaydi, uning sur'ati va ritmini boshqaradi [2].

Shunday qilib, ko'rgazmalilik usullari o'quvchining harakatlarni to'g'ri idrok qilishi va tasavvur etishi, hissiy ongining kengayishiga, harakatlarni bajarishda o'z-o'zini nazorat qilishning vujudga kelishiga, harakatlar sur'ati va ritmini eshitish orqali boshqarishga, sensor qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Harakatlarga o'rgatishdagi og'zaki usullar quyidagilarda ifodalanadi:

o'quvchilarga ulardagi mavjud hayotiy tajriba va tasavvurga tayangan holda yangi harakatlarni aniq, qisqa bir vaqtda bayon etish va tushuntirishda; harakatlarni konkret ko'rsatish yoki uning ayrim elementlarini aniqlash asnosidagi sharhda; o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan harakatlarni qayta bajarishda yoki mashqlarni o'quvchilar mustaqil bajarishlarida zarur bo'ladigan ko'rsatmalarda; yangi jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlarni joriy qilish yoki harakatlarni o'rgatishda ularni tushuntirish, harakatli o'yin sյjeti va hokazolarni aniqlashtirish talab etilganda oldindan o'tkaziladigan suhbatda; o'qituvchi jismoniy mashqlarning bajarilishidan oldin harakatlarni bajarish izchilligini anglash darajasini aniqlash yoki syujetli harakatli o'yinlar obrazlari haqidagi tasavurning bor-yo'qligini tekshirish, qoidalarni, o'yin harakatlari va hokazolarni aniqlashtirish maqsadida o'quvchilarga beradigan savollarida.

Bundan tashqari ko'rsatib o'tilgan usullar turli komandalar, farmoyish va signallarni aniq, emotsional va ta'sirchan tarzda berishda ham ifodalanadi. Qofiyali tekstlarning musiqiyliigi va ritmiligi o'quvchilarda emotsional ruh uyg'otadi, natijada bu qofiyalar ular tomonidan oson o'zlashtiriladi va keyinchalik mustaqil o'yinlarda foydalaniladi.

Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari 4,5 va ayniqsa 6 yoshli bolalar o'zlariga mos turli harakat faoliyatining vazifa va shartlarini tushunib olishda etarli tayyorgarlikka ega ekanliklarini ko'rsatmoqda. Bu harakat ko'nikmalarini shakllantirishda og'zaki ta'sir etish usullaridan keng foydalanish imkonini beradi. Ular faqat ko'nikmalarni egallash sur'atini emas, balki sifatini ham oshiradi.

“Bola rivojlanishining keyingi bosqichlarida og'zaki ta'sir etish tizimi yordamida avvalgi taassurotlar izlarining yangi birikma va kombinatsiyalarda jonlanishi roz beradi. Bundan asosan birinchi bor sof og'zaki ko'rsatma va tushuntirishlar yordamida yangi muvaffaqiyat aloqa o'rnatish, yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish imkoni tug'iladi”.

Maktab yoshida harakat ko'nikmalarini shakllantirish ko'p jihatdan bolaning mashq mazmuni va strukturasi, ya'ni uning barcha elementlarini qaysi izchillikda va qanday bajarish kerakligini anglash darajasiga bog'liq bo'ladi.

Shunday ekan, o'qituvchi tomonidan berilgan namunaga quruq taqlid qilishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bunda harakat ko'nikmalarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi jarayoni ko'pincha mexanik tarzda kechadi. Ana shunday hollarda o'quvchilar rozaki qaraganda mashqlarni durust bajaradilar. Biroq mashq tugagandan so'ng o'quvchidan qanday harakat qilish kerakligi so'ralganda ko'pchilik hollarda u bu savolga aniq javob bera olmaydi. To'g'rirog'i, o'quvchi javob berish o'rniga harakatni qayta bajara boshlaydi.

P.F.Lesgaft: “Agar o'quvchi biror bir mexanik metodni uning ayrim usullarining ma'nosini mutlaqo tushunmay o'zlashtirar ekan, u mexanik tarzda harakat qiladi-u mazkur metodni muayyan bir vaziyatga tatbiq eta olmaydi”, deb yozgan edi. P.F.Lesgaft ta'rificha, “harakat haqidagi tasavvur” gavdaning harakatlanuvchi qismlari, harakat amplitudasi, yo'nalishi, tezligi, tarangligi va boshqa harakat komponentlari haqidagi tasavvurdan kelib chiqadi. Shunday ekan, bunday hollarda o'quvchida gavdaning harakatlanuvchi qismlarining o'zi his etadigan barcha tarkibiy qismlari bilan mujassamlashgan obrazi vujudga keladi.

O'quvchilar mashqlarni og'zaki topshiriqqa asosan bajarib bo'lishgach, o'qituvchi uning alohida elementlarining to'g'ri bajarilgani mazkur holat uchun zarur bo'lgan ko'rsatma, ko'rgazmali namoyish, tushuntirish kabi usullarning istalgan bittasi orqali aniqlaydi. Bu bolalar tomonidan anglab olingan topshiriqni amaliy tekshirish orqali



aniqlashga xizmat qiladi.

Harakat faoliyatiga o'rgatishning ruqorida keltirilgan metodikasi professor A.I.Puni tadqiqotlariga tayanadi. Unda tasavvurning harakat ko'nikmalarini shakllantirish va harakatning mashq qildiruvchi ta'sirining roli ochib berilgan. Bu psixologiyada "ideomotor reaksiyasi" deb ataladigan o'ziga xos jarayonda ifodalanadi.

Ideomotor reaksiyalar o'z asosida I.P.Pavlovning mashhur qonuni bilan quyidagicha ta'riflanadi: "Agar muayyan bir harakat haqida o'yladingizmi, Siz uni beixtiyor, o'zingiz sezmaganda bajarasiz". Kishi o'zicha harakatni tasavvur qilganda uning bosh miya qostlog'ida kinestezik hujayralarning markaziy qo'zg'olish jarayoni vujudga keladi. Bu shuni ko'rsatadiki, mazkur harakatni amalda bajarish paytida paydo bo'lgan va mustahkamlangan muvaqqat nerv bog'lanishlari tizimining jonlanishi yuz beradi.

Tashqi qo'zg'otuvchi rolini o'ynovchi so'z markaziy qo'zg'olishning sababi bo'lishi mumkin. Harakat topshirig'ini berish paytida aytilgan so'z harakat mazmuni va strukturasi tasavvur qilishga yordam beradi. Boshqa paytda bu so'z kishining mazkur harakatni bajarish haqidagi o'z fikrini ifodalasa ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. U ham kinestezik hujayralarning qo'zg'olishini vujudga keltiradi. Kishida bu harakatni bajarishga doir paydo bo'ladigan tasavvur ana shuning natijasidir.

Mashqlarni egallashda aloqalar hosil qilinadi, har qanday, jumladan, mashqlarni xayolan takrorlaganda ham bu aloqalar sayqalashadi, natijada mashqlarni amaliy bajarish ham yaxshilanadi (A.TS.Puni) [1].

O'qituvchi bularning barchasini hisobga olib, o'quvchilarda harakat faoliyatining turli usullari ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida foydalanadi.

Chunonchi, o'quvchilarni harakatlarga o'rgatish jarayonida ko'nikmalarning shakllanishi stabil darajaga etganda va bolalar turli harakatlarni mustaqil bajarishlari kerak bo'lganda o'qituvchi ulardan biriga bu harakatni ayni paytda bajarmagan holda uning izchilligini eslab so'zlab berishni taklif qiladi.

O'quvchi harakatlar izchilligini eslar ekan, masalan, shunday deydi: "Avval tayoqchani ruqoriga ko'tarib, unga qaraladi, so'ng uni ko'tarilgan o'ng tizzaga tushiriladi, keyin esa yana ruqoriga ko'tariladi va pastgu tushiriladi". Dastlab bolalar odatda o'z hikoyalarini muayyan harakatlari bilan birga olib boradilar. Bunday hollarda so'z va bir vaqtdagi harakat xotiraning ko'rish-harakat tasavvuri ifodasi hisoblanadi va o'quvchining bu tasavvurga nisbatan javob reaksiyasini osonlashtiradi. Ba'zan o'qituvchi barcha o'quvchilarga harakatlarni eslashni, ya'ni nima qilishlarini o'zlaricha tasavvur etishni taklif qiladi.

Ta'limning bunday usullari harakatlar haqidagi tasavvurning vujudga kelishiga yordam beradi. Bu tasavvur harakatlarning o'quvchilar tomonidan to'g'ri bajarilishi, ularning ishtiyoqi, emotsional holati, diqqatining jamlanganligi va barqarorligi bilan mustahkamlanadi.

Mazkur usullardan muntazam foydalanilganda bolalar o'qituvchining harakatlarni albatta bajarib ko'rsatib berishini kutmaydilar: ular diqqatlarini topshiriqni tushuntirishga qaratadilar, so'ng mashqni to'g'ri, ishonch bilan mustaqil bajaradilar.

O'qituvchi keyinchalik og'zaki usullardan yangi mashqlarni o'rganishda foydalanishi mumkin. Har qanday yangi harakatda bolalarga avvaldan tanish elementlar mavjud bo'ladi, shuning uchun u mohiyatan faqatgina tanish elementlarning yangi kombinatsiyasi hisoblanadi.

Uzluksiz shug'ullanish natijasida barcha o'quvchilar o'qituvchining talablarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradilar, bu talabalarga amaliy harakatlar bilan to'g'ri, ongli tarzda javob qaytaradilar. Bolalar og'zaki topshiriqlarni yaxshi tushunadilar va ularni harakatga aniq tatbiq etadilar.

Keyinchalik bolalar biror-bir harakatning murakkab boʻlmagan variantini taklif etishlari va oʻzlariga tanish harakat elementlaridan yangi kombinatsiya tuzishlari mumkin.

Oʻquvchilarning javob reaksiyasi doimo turli individual xususiyatlarga molik boʻlib, u oʻquvchining umumiy rivojlanishi, uning nerv tizimi xususiyatlari, diqqatini jamlash darajasiga bogʻliq boʻladi.

Oʻquvchilarda harakat koʻnikmalarini shakllantirishning bayon etilgan jarayoni oʻquvchining psixik va jismoniy tayyorgarligiga mos keladi.

Oʻquvchilarda harakat koʻnikmalarini shakllantirishning boshlangʻich bosqichida oʻqituvchi tomonidan beriladigan ogʻzaki topshiriqlarning juda aniq, loʻnda boʻlishi hal qiluvchi rol oʻynaydi.

Harakat haqidagi tasavvurni shakllantirish jarayonida bu tasavvurlarning toʻgʻriligini kuzatib borish zarur. Bu haqida harakat faoliyatini ogʻzaki bayon etish va konkret harakatlarga qarab fikr roritish mumkin. Tasavvurning mashq qildiruvchi taʼsiri boladagi oʻz harakatlarini mustaqil boshqarish qobiliyatida va ularni bajarish sifatining yaxshilanishida koʻrinadi.

Oʻquvchilar tomonidan harakat (butun harakat faoliyati) mazmunining anglanishi uning harakat koʻnikmalarini toʻgʻri va birmuncha tez shakllantirishga, ijodiy aktivlikning rivojlanishiga, harakatlarni yangi vaziyatlarda muvaffaqiyatli qoʻllashga yordam beradi.

Oʻquvchilarni oʻrgatishda koʻrgazmali va ogʻzaki usullarning maqsadga muvofiq qoʻshib olib borilishi, ularning oʻzaro bogʻliqligi bir tomondan harakatlarni idrok etish va qayta bajarishning konkretligi va obrazlilikini, ikkinchi tomondan bolalar bajaradigan harakatli topshiriqlar-ular mazmuni va har bir harakat faoliyatining barcha elementlari izchilligini ongli tushunilishini taʼminlaydi. "Faqat tushunarli narsani qayta bajarish mumkin. Bunda eshitilgan narsa bosh rol oʻynaydi", - deb taʼkidlagan edi I.M.Sechenov [1].

Bolalarni harakatga oʻrgatishda koʻrgazmali va ogʻzaki usullar bilan oʻzaro bogʻliq turli amaliy usullar kompleksidan foydalanadi. U mashqlarni, harakatli oʻyinlardagi ayrim rollarni, boshqaruvchi rolini bajarib koʻrsatadi, oʻquvchilarni topshiriqlarga jalb qilib va namuna koʻrsatib ularni musobaqalarda qatnashishga ragʻbatlantiradi: masalan, kim harakatli topshiriqni tezroq, yaxshiroq, toʻgʻrironi bajaradi; u musobaqa hakami, jamoa kapitani rollarini bajarib, ularning oʻyinchilarga nisbatan qabul qiladigan qarorlarini, oʻzini qanday tutish va qanday hatti-harakat qilishni koʻrsatadi.

Amaliy faoliyatni tashkil etayotib, butun taʼlim jarayonini mashgʻulotning vazifalari, mazmuni, strukturasi muvofiq rejalab oladi. U oʻquvchilarga frontal taʼlim beradi; tanish harakatlarni takomillashtirish maqsadida ularni gruppalariga boʻladi, mustaqil harakat qilishni taklif etadi; oʻquvchilarga mashqlarni oʻrgatayotib, uni bir necha marta takrorlaydi va butun mashq jarayonini rejalagan holda oʻzgartiradi; bolalarni ijodiy izlanishga ragʻbatlantirib, mashqlarni, harakatli oʻyinni oʻzgartirish, ularning variantlarini tuzish, yangisini oʻylab topish kabi topshiriqlarni beradi [2].

Oʻquvchi taʼlim jarayonida har bir yosh bosqichida katta bilim va amaliy koʻnikmalarni egallab boradi. Shuning natijasida harakatlarning mustaqilligi, egallangan koʻnikmalarni oʻyin va hayotda qoʻllanishdagi topqirlik kuchaya boradi.

Oʻqituvchi oʻquvchilarning amaliy faoliyatiga rahbarlik qilar ekan, bola aqliy kamolotida taʼlimiy vazifalarni amalga oshirishni ham unutmaydi. U oʻquvchilarda ularga beriladigan harakatli topshiriqlarga nisbatan juda barqaror qiziqish va emotsional munosabatning vujudga kelishi hamda saqlanishi haqida gʻamxoʻrlik qiladi. Bu topshiriqlar bajarilishi uchun zarur qarorni izlashga yoʻnaltirilgan





tafakkur aktivligini talab qiladi. (Masalan, yurish, yugurish va sakrashlarni navbati bilan bajarishda quyidagi topshiriq beriladi: harakatlarni almashtirish uchun signal formasini o'ylab topish, ularni almashtirib turish tartibini taklif etish va nega undoq emas, bundoq bajarish sabablarini keltirish va boshqalar).

Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarga bunday mashqlar (elementlar va bajarilishi oson mashqlar), shuningdek ularni egallangan bilim va harakat ko'nikmalari (harakatlar texnikasi va ularni bajarish usullari, fazoda mo'ljal olish, mashg'ulotlarda harakatlarning almashinib turishi va hokazo) asosida qiziqarli hal qilish taklif etilganda ular aktivlik va ishtiyoq namoyon qilishlarini ko'rsatmoqda. Ko'rsatib o'tilgan topshiriqlar aqliy va ijodiy aktivlikning rivojlanishiga, tashkilotchilik ko'nikmalarini ko'zlab, maqsadli harakat qilishga, topqirlik va atrof-muhitda mo'ljal ola bilishni tarbiyalashga xizmat qiladi [5].

#### Adabiyotlar

1. Колобов В.А. /Лёгкоатлетическое десуатиборье, – Т.: 2013 г.
2. Шакиржанова К.Т., Тухтабоев Н.Т., /Основы техники, методики обучения в беге на короткие дистанции, – Т.: 2012 г.150 с
3. Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – С. 333-338.
4. Karomatovich I. A. METHODS OF TEACHING CHILDREN FOR MOVEMENT ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 242-249.
5. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11. P: 486-492. DOI: 10.5958/2249-7137.2020. 01410. X.